



XITOIY TILINI O`QITISHDA TALABALARDA TARJIMA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdulaxatov Firdavs Nizomjon o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7747691>

ARTICLE INFO

Received: 08th March 2023

Accepted: 17th March 2023

Online: 18th March 2023

KEY WORDS

Tarjima jarayoni, o`qitish usullari, zamonaviy texnologiyalar, lingvistik kompetensiyaga, kommunikativ kompetensiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimizda ro'y berayotgan ilm-fan sohasidagi islohotlar, chet tillarini o'rganishga qaratilayotgan e'tibor, shuning bilan birga bugungi kunda o'rganishga talab ortib borayotgan Xitoy tilini o'qitish, ta'lim berish jarayonida talabalarga tarjima kompetensiyalarini rivojlantirish borasida so'z yuritilib, tahlil qilindi.

Biz mamlakatimizning kelajagini ko`zda tutgan holda, bugungi kunda taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamoatchiligining e'tibor markazida turgan, eng ilg'or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi va oliy o`quv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalarni tashkil qilish, ularning rivojlangan mamlakatlarda ilm – fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalari o`rnatishga erishishimiz kerak. Xitoy deganda albatta hammamizning ko`z oldimizda har tomonlama rivojlangan davlat ko`z o`ngimizda gavdalanadi. Darhaqiqat Xitoy butun dunyoda iqtisod, diplomatiya, ta'lim, fan, madaniyat, sport va boshqa sohalarda taraqqiy etgan mamlakat hisoblanadi. Xitoy kundan - kunga dunyo miqyosida rivojlanib borayotgani sababli bugungi kunda xitoy tilini o`rganishga bo`lgan qiziqish ham borgan sari ortib bormoqda. Hammamizga ma'lumki, xitoy tili dunyodagi o`rganilishi qiyin bo`lgan tillar sarasiga kiradi. Dunyoning zamonaviy talablariga ko`ra, muhandislik bozorida va mukammal raqobatda hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga nisbatan ular professional kompetensiyaga erishishi uchun ular zimmasidagi talablar ham juda yuqoridir. Ish beruvchi korxonalar yuqori malakaga ega kadrlarga muhtoj, keyinchalik ular ish jarayonida o`z professional faoliyatini amalga oshirishda ham tilni mukammal darajada bilishi talab etiladi. Muhandislik sohasidagi ko`pgina bitiruvchi talabalar Rossiya– Amerika va Rossiya-Germaniya, Rossiya - Fransiya korxonalariga ishga joylashadilar. Ular o`zlarining ish faoliyati jarayonida chet-el fuqarolari bilan suhbat quradilar, ulat texnik so`zlarni o`rganadilar va hujjatlarni o`qiydilar, ilmiy va texnik jurnallarni o`qiydilar va bir necha tillarda faoliyat yuritadilar. Ish faoliyatidagi ishlab chiqarish aloqalari kelajakdagi muhandislik ishlari uchun juda ham muhim. Ilmiy – amaliy anjuman va konferensiyalarda texnik so`zlarni biluvchi bilimga ega kadrlar ishtirok etadilar. Undan tashqari, ular mukammal ishlab chiqarish jihozlaridan foydalanishda ham tarjimonlar



kerak. Chet-el korxonalarini bilan hamkorlik qilishda kelajakdagi tarjimonlarning bu korxonaning rivojlanishida ham ularning xissalari katta.

O`qitish va tarjima jarayonida o`qitish usullari ya`ni texnologiyalari bu pedagogning dars o`tish usullarini va o`z o`quvchilarini darsga qiziqtirish maqsadida muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabalarga tarjima jarayonida o`qitishda kommunikativ kompetensiya sifatida quyidagi usullar yuqori natijalarga erishishga xizmat qilmoqda: adabiyotni kuzatish va tadqiq qilish, metodik va maxsus tarjimonlarni tayyorlash dasturlari asosida tahlil qilinmoqda. Talabalar biror bir matnni tarjima qilayotganlarida aynan xitoy tilidan o`zbek yoki rus tiliga tarjima qilayotganlarida uni qanday matnligiga e`tibor berishi kerak. Tarjimaning ham turli xil turlari ko`p, ya`ni normativ hujjatlarning tarjimasi, og`zaki sinxron tarjima, oddiy darslikdagi matn tarjimalar va boshqa turdagi tarjima turlari mavjud.

Uzoq pedagogik tajriba va ish jarayonida va ko`p tadqiqotlar natijasida, tildan dars o`tish tajribasi shuni ko`rsatadiki, talabalarning ko`pchiligi so`zlashuv jarayonida ularning bilimi yetishmasligini va bu tarjima kompetensiya past darajadiligini ko`rsatdi. Bu esa kelajakdagi kadrlarning xalqaro aloqalarni mustahkamlashda va rivojlantirishga xizmat qilmasligi mumkin. Shuning uchun tarjima kompetensiyasini rivojlantiruvchi talabalar ma`lumotlarni yetkazib berishda leksik birliklarga va maxsus so`zlarning tajimolarini bilishlari kerak. Xitoyda har bir korxonalar tarjimonlarga o`zining soxasiga mos maxsus so`zlarni yod olishga vaqt beradi va ularning oylik maoshlarini ularning til bilish darajasiga qarab va tajima mahoratiga qarab belgilaydilar.

Bo`lajak talabalarga xorijiy tillarni o`qitishda ularga til metodikasiga tayangan holda dars berish kerak. Yetti yillik o`qituvchilik tajribamizga ko`ra, avvalo o`quvchilarga 拼音pingyin-ya`ni xitoy tili irogliflarning fonetik transkripsiyasidan o`rgatishni boshlash kerak. Keyin 韵母和声母 yunmu va shenmu (xitoy tilidagi unli va undosh harflar)ni talabalarga tushuntirib harflarning o`qilishini ular bilan talaffuz qilish kerak. Talabalar shenmu va yunmularni o`rganib bo`lganlaridan so`ng, ularga birinchi navbatda 声调shengdiao ya`ni xitoy tilidagi ohanglarni ularni birbiri bilan farqini o`rgatish lozim.

Xitoy tili boshqa tillarga o`xshamaydi va boshqa xorijiy tillardan farq qiladi. Bu esa aynan ohang ya`ni xitoy tilidagi to`rtta asosiy ohangga urg`u beramiz. Talaffuz jarayonida bo`g`in past va baland ovozda talaffuz qilinadi. Masalan, 妈-ma, 麻-ma, 马-ma, 骂-ma- so`kmoq kabi so`zlar turli hil ohanglarda keladi va ular tuli ma`nolarni anglatadi. Bu so`zlarning ohangi turlicha, irogliflari ham farqi bor va shuning uchun ma`nosi ham boshqachadir. Bu so`zlarda shengmusi – m, yunmusi esa- a harfi ularning bo`g`inlari ham turli xil. Kitoblarda ularning irogliflari ham birbiri bilan farq qiladi. Shuning uchun xitoy tilida ohang muhim rol o`ynaydi.

Talabalar xorijiy tillarni o`rganayotganlarida o`z bilimlaridan foydalanganlarida, matnni o`qiyotganlarida uning mazmunini tushunishi kerak, uning tarjimasini yozishi va boshqa millat vakillari bilan shu o`rgangan tillaridan foydalanib muloqot jarayoniga kirishishi kerak. Shu ondan talabalarda tarjima qilish va so`zlashish jarayoni kelib chiqadi. Lingvistik kompetensiyaga ko`ra, bir necha dissertatsiyalar o`rganib chiqildi, bunga ko`ra kommunikativ kompetensiya maxsus bilimlarni berishda zamonaviy bilim usullariga tayanib xorijiy tillarni o`qitishda ko`proq multimediyalar dasturlardan va prezentatsiyalardan foydalanib dars o`tishni



talab etadi. Hozirda ko`pchilik talabalar lingvistik bilimga ega emas, har yili Rossiya va Xitoy universitetlari va institutar o`quvchilarning lingvistik bilimni tekshirish uchun va kommunikativ kompetensiyani ularda rivojlantirish uchun test savollarini berib nazorat ishi oladilar. Agar talabalarga tilni o`rgatishda va tarjima qilish bilimlarini berishda zamonaviy texnologiya yangi usullardan biz o`qituvchilar to`g`ri foydalansak unda bu o`quvchilarda gaplarni leksik va Grammatik jihatdan to`g`ri tuzishlari va kutilgan natijalaraga erisha olishimiz mumkunligidan dalolat beradi. Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning o`zagi hisoblanadi. S`zlashuv jarayonida fonetik tovushlarni ham to`g`ri talaffuz qilib, buni tarjima jarayonida ahamiyati juda katta. Chunki xitoy tilida to`rt xil ohang borligi tufayli, agar bizga murojaat qilinganda so`zning ma`nosini boshqa ohangda qabul qilsak, gapimizning tarjimasi umuman boshqa ma`noda tushunishimiz mumkin. O`quvchilar 汉语水平考试 (Xitoy tilini bilish darajasi imtixon) HSKning 听力 imtixonlarida ham gaplarning ma`nolarini tushunishmasa, ular bu bosqichdan o`tolmasliklari mumkin va ular kutilgan natijalarga erisholmaydilar. Shuning uchun xitoy tilini o`rganayotganda, uning fonetikasini, leksikasini, so`z birikmalarni va tarjima jarayonidagi metodlarni mukammal darajada o`rganishlari shart. Har bir tilni o`rganish jarayonida o`ziga yarasha qiyinchiliklari bor.

Tarjima kompetensiyasini oliy o`quv yurtlari talabalariga xitoy tilini o`qitish metodikasi va kommunikativ metodika bo`yicha, professional til o`rgatish kommunikativ kompetensiyaning o`zagi hisoblanadi. Eksplikativ – kommunikativ metodika grammatik kompetensiyaning tuzilishini hisobga olib, o`z ichiga Grammatik ma`lumotlarni va shu bilan birga tilga oid mashqlar beriladi, bu esa grammatik bilimlari oshadi va so`zlashuv faoliyatida bu tarjima jarayonida katta yutuqlarga erishish mumkin. Agar talabalar bilimlarni mukammal egallab tarjima jarayonida o`z fikrlarini to`g`ri bayon etsa, bu sinxron tarjimada ham juda katta ish beradi. Tarjima kompetensiyani shakllantirish uchun biz tomondan Tadqiqotchilarning izlanishlariga ko`ra, bunday algoritm maxsus leksikaning tuzilishini va matnlarni o`qishda professional kommunikatsiya asosida xorijiy tillarni kompyuter dasturlarga tayangan holda o`rganishni tadbiq etadi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, bunday til metodikasi bo`yicha tarjima kompetensiyasini maxsus tarjima dasturlari asosida o`quv materiallarni o`rganish, individual yondashib o`qish, oliy o`quv kursini o`qitishda va talabalarga tarjimini to`g`ri qilishda va og`zaki tilni shakllantirishda professional kompetensiya bo`yicha ularni jamiyatga kelajakda yetuk tarjimon mutaxassis yetkazib berishni talab etadi.

References:

1. Большая психологическая энциклопедия. - М., 2007.
2. Медникова О.Н. Технология развития критического мышления через чтение и письмо как средство развития рефлексивной деятельности учащихся//Вестник ТГПУ. 2015, №6(159) – С. 19-22. (Электронный ресурс).
3. 谢文庆。 语言学教程:(Yuyanxue jiaocheng) Til o`rgatish kursi kitobi – Pekin.: 外国教学与研究出版社 1998 yil.